

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTOVALYUTA ORQALI BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI

Xazratov Mexriddin Faxriddin o'g'li | [h.mex@mail.ru](mailto:h.mex@mail.ru)

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kriptovalyuta orqali biznesni moliyalashtirish masalalari va muammolari tahlil qilinadi. Biznes sohasida kriptovalyutaning o'rni hamda uni moliyalashtirishning mazkur turi orqali vujudga keluvchi huquqiy muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallifning fikr-mulohazalari bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** biznes, kriptovaluta, blokcheyn, elektron-pul, mayning, kripto-birlik, kripto-birja.

---

## ISSUES OF BUSINESS FINANCING THROUGH CRYPTOCURRENCY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Khazratov Mehriddin Fakhridin ogli

*Master's degree student of Tashkent State University of Law*

**Abstract.** This article analyzes the issues and problems of business financing through cryptocurrency in the Republic of Uzbekistan. The place of cryptocurrency in the field of business and the legal problems arising from this type of financing, as well as the author's opinion on their elimination, are described.

**Keywords:** business, cryptocurrency, blockchain, electronic money, mining, crypto unit, crypto exchange.

---

## ВОПРОСЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРИПТОВАЛЮТУ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Хазратов Мехриддин Фахриддин угли**

*Магистрант Ташкентского государственного юридического университета*

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы и проблемы финансирования бизнеса посредством криптовалюты в Республике Узбекистан. Описано место криптовалюты в сфере бизнеса и правовые проблемы, возникающие при этом виде финансирования, а также мнение автора по поводу их устранения.

**Ключевые слова:** бизнес, криптовалюта, блокчейн, электронные деньги, майнинг, криптоединица, криптобиржа.

---

Elektron pul tushunchasi o'tgan asrning 80-yillarida David Li Chaum tomonidan tilgan olingan termin hisoblanadi[1]. Kriptovalyuta esa mazkur olimning bundan tashqari, Stefan Brands va- Moni Noar[2] birgalikda elektron pul va hamda uning harakatlanishiga doir ko'plab ishlar amalga oshirildi. Keyinchalik elektron pulning tizimli bloklarda (blokchainda) orqali amalga oshirilishi bo'yicha AQSH olimlari S. Xaber va V. Skott[3] ishlari e'tiborga molik hodisadir. 2008-yilda Satoshi Nakamoto taxallusi ostida bir shaxs yoki bir guruh odamlar "peer-to-peer" tarmog'i shaklida, to'lov tizimining ishlash tamoyilini tavsiflovchi protokol faylini nashr etdi. Satoshining so'zlariga ko'ra, bu jarayon 2007-yilda boshlangan[4]. 2009-yilda u protokolni ishlab chiqishni yakunladi va dastur-mijoz kodini nashr etdi.

Ammo blokcheyn texnologiyasi mahsulotlaridan biri – kriptovalyutani keng tarqalishi va u asosda to'lov tizimini tashkil qilishga bo'lgan qiziqishni keskin oshishi o'z-o'zidan ushbu sohaga e'tiborni ortishiga sabab bo'ldi. Anonimligi, markazlashmaganligi va transmilliy tusga egaligi tufayli pul oqimlarini tartibga solishning odatiy oqimlari uchun jiddiy xavf tug'diradigan yangi vositaning paydo bo'lishi ayrim mamlakatlar tomonidan uni tatbis qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy xavflarni kamaytirish yo'llarini izlashga majbur qildi.

A. Polatovning[5] tadqiqotlariga asosan, Abd Aziz A. S., Noor N. A. M., Al Mashhour O. F.larning “The money of the future: A study of the legal challenges facing cryptocurrencies” maqolasi asosida bergan ma’lumotlariga qaraganda, so’nggi besh yil ichida 116,88% eksponensial o’sish bilan kriptoaaktiv sohasiga qiziqish ortib bormoqda. So’nggi o’n yilliklarda texnologik o’zgarishlarning rivojlanishi va tezligi tasavvur qilib bo’lmaydigan darajada o’sgani tufayli, ushbu sohada tadqiqotlarning keskin oshgani ajablanarli emas. Ushbu eksponensial o’sish virtual haqiqat (virtual reallik-VR), nanotexnologiya, sun’iy intellekt (AI), Data Science yoki robototexnika, kriptoaaktiv va boshqa sohalarda namoyon bo’ladi.

N.Syamsiah qayd etganidek, “kriptoalyuta raqamli valyuta tizimi bo’lib, unda foydalanuvchi standart valyuta sifatida amalga oshirilgan biznes faoliyati uchun raqamli to’lovlardan foydalanadi”[6].

Kriptoalyuta biznesi, kriptoaaktivlar va blockchain texnologiyasi asosida ishlov beruvchi tadbir va faoliyatlar barchasini o’z ichiga oladi. Bu soha o’zida xilma-xil usullar bilan moliyalash uchun imkoniyat yaratadi va kriptoalyutalar (masalan, Bitcoin, Ethereum, Ripple[7]) yoki ularning asosida ishlov beriladigan tokenlar orqali moliyalashni o’z ichiga oladi. Hozirda, xorijiy davlatlarda (xususan AQSHda) kriptoalyuta orqali quyidagi biznes bilan bog’liq ishlarni amalga oshirish mumkin:

To’lovlar va xizmatlarni sotish:

Kriptoalyutalar orqali to’lov qabul qilish, global bozorda savdo qilish va xizmatlarni sotish uchun mukhlis shartlar yaratadi. Bu usulda, xalqaro to’lovlar tez, qulay va qulay ishlovchi bo’lishi mumkin.

Dastlabki moliyalashtirish (ICO)[8]:

Kriptoalyutalar orqali moliyalashtirish (Initial Coin Offering, ICO) yoki to’lov tokenlari orqali kapital jalb etish uchun qo’shimcha imkoniyatlar yaratish. Bu usulda, tadbirkorlar o’zlarining loyiha va bizneslarini ommaga taqdim etish uchun tokenlarni sotishadi.

Kriptoalyuta mining (qazish):

Kriptoalyuta mining, kriptoalyutalar olish uchun kompyuterlar yordamida moliyalashni anglatadi[9]. Bu usul, kriptoalyutalar olish orqali biznesni olib borishga imkon beradi. Ammo, bu soha energetika sarflariga e’tibor

bermaslik va mahsulot olish uchun texnologiyalarni rivojlantirish zarurati tug'iladi.

DeFi platformalari orqali biznes yuritish:

DeFi (Decentralized Finance[10]) platformalari orqali foydalanuvchilar to'lovlarini o'zaro almashinuvi yordamida amalga oshirishadi. Bu, kreditlar, almashinuvlar, xavfsizlikli valyuta almashinuvi va boshqa moliya operatsiyalarini amalga oshirish uchun o'zaro aloqalar yaratish imkoniyatini beradi.

Blockchain t-exnologiyasi orqali biznesni moliyalashtirish:

Bizneslar o'zlarini rivojlantirish uchun blockchain texnologiyasini qo'llash orqali tajribalarini oshirishadi. Shu bilan birga, shirkatlar o'zlarini ishonchlilarni tasdiqlash, moliyalashtirishni o'zlashtirish, ish olishish operatsiyalarini avtomatlashtirish va moliya hisobotlarini oshirish uchun blockchain texnologiyasidan foydalanishadi.

Kripto valyutalarni investitsiya qilish:

Biznes bilan shug'ullanuvchilar kriptovalyutalarga investitsiya qilishi yoki ularni o'zlarining moliyaviy portfeli qismi sifatida qo'llashadi. Ushbu yo'nalish, shirkatlar uchun kapitalni o'zlashtirish va moliyalashni diversifikatsiyalashni ta'minlash imkoniyatlarini beradi.

Smart-kontraktlar, o'zaro moliyalashtirish, to'lovlar, shartnoma boshqa amallarni bajarishda avtomatlashtirilgan kontraktlardir. Ular, bizneslarga aniq shartlarda amalga oshirish imkoniyatini beradi va moliyalashni isloh qilish uchun o'zlashtirilgan jarayonlarni yaratadi.

Kriptovalyuta barcha pul funksiyalarini bajarishi mumkin bo'lsada, milliy qonunchiligimiz raqamli valyutani valyuta sifatida e'tirof etmaydi. Chunki raqamli valyutaning O'zbekiston yoki boshqa biron bir davlatning pul birligi bilan huquqiy jihatdan bog'liqligi yo'q, u mustaqil moliyaviy institut sanaladi.

Kriptovalyuta noyob ob'ekt bo'lib, u pul mablag'larining naqd va naqdsiz muomalasi mazmuniga to'g'ri kelmaydi. Pul mablag'larining bunday turlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy tartibga solish modellari kriptovalyuta bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish uchun tatbiq qilinmaydi. Mohiyatan buni imkoniyati ham yo'q hisoblanadi. Bugungi kunda pul va kriptovalyutaning huquqiy tabiati bir xil emas. Ushbu fikrni quyidagilar bilan asoslash mumkin: qonuniy to'lov vositasi sifatida so'm milliy valyuta davlat tomonidan ta'minlanadi va uning nazorati ostida chiqariladi, kriptovalyuta esa markazlashtirilmagan

va anonim ravishda chiqariladi, bundan tashqari, u prinsipial jihatdan hech narsa bilan, shu jumladan davlatning majburiy kuchi bilan ham ta'minlanmaydi.

Kriptovalyuta operatsiyalari shaffof bo'lishiga qaramay, uning manzilini va hisob egasi kimligini aniqlash juda qiyin va agar u jinoyatchiga tegishli bo'lsa, buni amalga oshirish deyarli mumkin emas. Shu bois, kriptovalyuta nafaqat biznes uchun afzalliklarni keltirib chiqardi, balki hukumatlar va hatto foydalanuvchilar uchun ham bir qator yangi xavflarni keltirib chiqardi.

Bu muammolarga kibernetik xavfsizlik xavfi, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, noqonuniy faoliyatni rag'batlantirish va terrorizmni moliyaviy qo'llab-quvvatlash kiradi. Hokimiyatlar kriptovalyutadan noto'g'ri foydalanishni moslashtirish yoki oldini olish uchun yaxshiroq muhit yaratish umidi bilan amaldagi qonunga o'zgartirish kiritishga urinishdi.

Biznesni raqamlashtirishning ijtimoiy yo'nalishi kichik biznes uchun investisiyalarni jalb qilish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi[11].

Shu munosabat bilan ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga solish alohida o'rin tutadi, chunki huquqiy noaniqlik bugungi kunda tokenizasiya uchun asosiy to'siq sifatida tan olingan. Aynan xususiy huquq iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning yangi vositalarini ishlabchiqish imkoniyatiga ega. Tokenizasiya jarayonlari paydo bo'layotgan iqtisodiy imkoniyatlarni ham, huquqiy muammolarni ham aniq namoyish etmoqda[12].

Estoniyada Kriptovalyutalarni tartibga solish bo'yicha qonunlarni qabul qilgan birinchilardan biri. 2019 yilgacha u 500 dan ortiq kriptokompaniyalar ro'yxatdan o'tgan ushbu sanoatning markaziga aylandi. Huquqiy qoidalar butun dunyo bo'ylab biznes yuritish imkonini beradi. 2019 yilda Danske Bank orqali 220 milliard dollardan ortiq pul yuvish haqidagi janjaldan so'ng u bunday kompaniyalarni tartibga solish va ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini kuchaytirdi[13].

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi moliya bozorlarida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. COVID-19 koronavirus pandemiyasi odamlarning kundalik hayotida pul o'tkazmalarini amalga oshirishi uchun to'lov tizimlaridan ko'proq foydalanishiga sabab bo'ldi. Davlat organlari tomonidan hal qilinadigan asosiy masalalar qatoriga raqamli valyuta, shu

jumladan kriptovalyuta muomalasi uchun huquqiy sohaning muhim asoslarini yaratish bilan bog'liq vazifalar ham qo'shildi.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xususan, Fuqarolik Kodeksining 94-moddasiga asosan pul birligi "so'm" ekanligi qayd etilgan, shuningdek, mazkur kodeksning 245-moddasida, pul majburiyatlari chet el davlatining pul birligida hamda so'mga qiymatlangan holatda amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan.

Milliy qonunchilikka asosan kriptoaktivlar O'zbekiston Respublikasi hududida to'lov yoki to'lov vositasi sifatida foydalanish mumkin emas. "Kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini lisenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizomning 11-bandida kripto-aktivlar O'zbekiston Respublikasida to'lov va to'lovni qabul qilish vositasi emasligi aniq ko'rsatilgan. Ushbu qoidadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi hududida kriptovalyuta to'lov vositasi bo'lmagan aktiv hisoblanadi.

Bundan ko'rinadiki biznesni moliyalashtirishning ham kriptovalyuta orqali amalga oshirilishi davlatimiz hududida huquqiy jihatdan tartibga solinishi kerak bo'lgan soha hisoblanadi.

Virtual pul mablag'lariga qonuniy to'lov vositasi maqomini berish kichik va o'rta biznes sub'ektlari o'rtasida yashin tezligida tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatini keltirib chiqaradi, bu esa uning rivojlanishiga kuchli turtki bo'ladi.

Hozirda, kriptovalyuta aylanishini qonuniy tartibga solishning quyidagi shakllarini taklif qilish mumkin:

Birinchi, to'lov tizimi to'g'risidagi qonun hujjatlarini yangilash va amaldagi qonunchilikning ayrim bandlarini o'zgartirish: to'lov tizimi, faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash, soliq va bank qonunchiligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini yangi fenomen talablari asosida takomillashtirish. Foydalanuvchilar, mayningchilar, birjalar, ayirboshlash shoxobchalari va boshqalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini ishlab chiqish. Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida jahon standartlarini ishlab chiqadigan hukumatlararo tashkilot talablariga muvofiq kriptovalyutalarni naqdlashtirish bo'yicha ham aniq tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Ikkinchi, kriptovalyutaning qonunchilik ta'rifi, uning xususiyatlari, munosabatlar sub'ektlari va valyutadan jinoiy maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish chora-tadbirlarini aks ettiruvchi O'zbekiston Respublikasi

“Kriptovalyutani tartibga solish asoslari to‘g‘risida” gi maxsus qonunni ishlab chiqish.

Uchinchi, fuqarolik hamda iqtisodiy munosabatlarda kripto-aktivlardan foydalanishni nazarda tutvchi qonunchilikda, kriptovalyutalarni moliya-kredit hamda to‘lov vositasi sifatida qayd etish zarur.

To‘rtinchidan, kriptovalyutalarni jamiyat hamda davlatning tomonidan o‘rnatilgan barqarorlashtiruvchi moliyaviy-huquqiy qoida va tartiblariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligini qonunchilikda belgilab qo‘yish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://chaum.com/>
2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Moni\\_Naor](https://en.wikipedia.org/wiki/Moni_Naor)
3. <https://link.springer.com/article/10.1007/BF00196791>
4. Abd Aziz A. S., Noor N. A. M., Al Mashhour O. F. The money of the future: A study of the legal challenges facing cryptocurrencies //BiLD Law Journal. – 2022. – T. 7. – №. 1s. – C. 21-33.  
[https://www.researchgate.net/publication/359108886\\_The\\_Money\\_of\\_The\\_Future\\_A\\_Study\\_of\\_The\\_Legal\\_Challenges\\_Facing\\_Cryptocurrencies](https://www.researchgate.net/publication/359108886_The_Money_of_The_Future_A_Study_of_The_Legal_Challenges_Facing_Cryptocurrencies)
5. A.Po'latov: "Kriptoalyuta va tokenlar aylanmasini huquqiy tartibga solinishi" mavzusidagi Yupidik fanlap bo'yicha falsafa doktopi (PHD) ilmiy dapajacini olish uchun tayyoplangan disseptasiyasi. Toshkent-2023
6. N. Syamsiah, "Kajian Atas Cryptocurrency Sebagai Alat Pembayaran Di Indonesia," Indones. J. Netw. Secur., pp.  
53–61, 2017. <http://ijns.org/journal/index.php/ijns/article/view/1449>
8. <https://coinmarketcap.com/>
9. [https://www.investopedia.com/terms/i/initial-coin-offering-ico.asp#:~:text=Initial%20coin%20offerings%20\(ICOs\)%20are,a%20software%20service%20or%20product.](https://www.investopedia.com/terms/i/initial-coin-offering-ico.asp#:~:text=Initial%20coin%20offerings%20(ICOs)%20are,a%20software%20service%20or%20product.)
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/mayning-kriptoalyuty-v-rossii-i-v-mire-ponyatie-i-pravovoe-regulirovanie>
11. M. A. YEGOROVA, Head of the Department of international cooperation, Professor of the Department of competition law of the Kutaf n Moscow State Law University (MSAL), Chairman of the Commission on improving antitrust legislation, Moscow regional branch of the AUR, co-President of the international Union of lawyers and economists (France), doctor of legal Sciences, Professor
12. [https://en.wikipedia.org/wiki/Decentralized\\_finance#:~:text=Decentralized%20finance%20\(often%20stylized%20as,on%20a%20blockchain%2C%20mainly%20Ethereum.](https://en.wikipedia.org/wiki/Decentralized_finance#:~:text=Decentralized%20finance%20(often%20stylized%20as,on%20a%20blockchain%2C%20mainly%20Ethereum.)
13. Hill R.P. Disadvantaged consumers: an ethical approach to consumption by the poor // Journal of Business Ethics.
14. 2008. Vol. 80.1. P. 77–83 <https://www.jstor.org/stable/41219192>



15. Belleflamme P., Lambert T., Schwienbacher A. Individual crowdfunding practices // Venture Capital. 2013. Vol. 15, № 4. P. 313-333  
<https://econpapers.repec.org/article/tafveece/v3a153ay3a20133ai3a43ap3a313-333.htm>
16. <https://habr.com/ru/companies/moneypipe/articles/521294/>